



USTRUSHONA VA HINDISTONNING MADANIY ALOQALARI

Abduraimov Dilshod

*Guliston davlat universiteti ijtimoiy iqtisodiy
fakulteti Tarix kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ustrushona mintaqasining Hindiston bilan madaniy aloqalari rivojlangan davr va buyuk ipak yo'li orqali olib borilgan mafaniy va savdo sotiq aloqalar, Ustrushona mintaqasi orqali III-VIII asrlarda Buyuk Ipak yo'li o'zining gullab-yashnash cho'qqisida rivojlanganligi va shu davrda Buyuk Ipak yo'lida ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi va boshqa mintaqalarning madaniy aloqalari ham muhim ahamiyat kasb etgani ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Ustrushona, Tasviriy san'at, Sirena, Ipak yo'li, Hindiston, Savdo, Madaniyat, Rangtasvir, Madaniy aloqalar, Hind san'ati, Buyuk Ipak yo'li, Madaniyat, Haykaltarosh, Yodgorlik, Panjikent.

Annotatsiya. В данной статье развивались культурные связи Уструшонского региона с Индией, а торгово-экономические связи осуществлялись через Великий шелковый путь. Показано, что культурные контакты Средней Азии и других регионов приобретали значение в раннем Средневековье. по Великому шелковому пути.

Ключевые слова. Живопись, Изобразительное искусство, Сирена, Шелковый путь, Индия, Торговля, Культура, Живопись, Культурные связи, Индийское искусство, Великий шелковый путь, Культура, Скульптор, Памятник, Пенджикент.

Annotation. In this article, the cultural relations of the Ustrushona region with India developed, and the economic and trade relations carried out through the Great Silk Road. It has been shown that the cultural contacts of Central Asia and other regions gained importance in the early Middle Ages along the Great Silk Road.

Key words. Painting, Fine Art, Siren, Silk Road, India, Trade, Culture, Painting, Cultural Relations, Indian Art, Great Silk Road, Culture, Sculptor, Monument, Panjikent.

Markaziy Osiyoning, shu jumladan Ustrushonaning ham, qadimda va ilk o'rta asrlardagi Hindiston bilan siyosiy va madaniy aloqalarini yorituvchi adabiyotlar



va arxeologik tadqiqotlarning natijalari bu aloqalarning shart-sharoitlarini ochib beradi. Ular ko'pincha O'rta Osiyo hududidan o'tgan xalqlarning shimoldan janubga harakat qilganligi sababli vujudga kelib, bu jarayonlar qadimdan boshlangan. Bu harakatlanish V.V.Bartoldning fikricha, O'rta Osiyo madaniyatining "hind madaniyati bilan yaqinlashuvida aks etmay qolmasdi"¹.

Mazkur bobda mintaqadagi davlatlarning, xususan Ustrushonaning ham, Hindiston bilan aloqalarini O'rta Osiyodagi VI-VIII asrlarda sodir bo'lgan feodal munosabatlar davrida tasviriy san'at sohasida aks ettirilganligini ko'rsatishga harakat qilamiz hamda faqat so'nggi o'n yilliklarda ochilib o'rganilgan monumental tasviriy san'at namunalarini qarab chiqamiz.

Avvalambor shuni qayd qilish kerakki, Hindiston haqida gapirganda, asosan Hinduston yarimorolining shimoliy qismini va unga tutash bo'lgan hozirgi Afg'onistonning Hindukirush tog'laridan janubga tomondagi hududlari nazarda tutiladi. Mazkur tog' tizmasidan shimol tomondagi hududlar qadimda O'rta Osiyoning janubiy hududlari bilan birga ko'p asrlar davomida yagona madaniy viloyatni tashkil qilgan. Bu madaniy viloyat antik davrda Baqtriya, o'rta asrlarda Tohariston deb atalgan. Shu tariqa, bu viloyatning Hindiston bilan doimiy aloqalari geografik joylashuvi bilan ham, ya'ni chegaralarning bevosita umumiyliigi bilan ham belgilangan. Ammo hududiy yaqinlikdan tashqari Hindiston va O'rta Osiyo o'rtasidagi madaniy o'zaro aloqalariga ko'maklashgan boshqa o'ziga xos omillar ham bo'lgan. Ulardan buddaviylarning missionerlik faoliyati ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'lgan va bu faoliyat tasviriy san'atning rivojiga ham ta'sir ko'rsatgan. Biroq, buddizmning O'rta Osiyo hududiga tarqalishi tarixi juda kam o'rganilgan.

Rangtasvir bilan birgalikda hind san'ati bilan yaqin aloqadorlikni antik davr va ilk o'rta asrlardagi O'rta Osiyo haykaltaroshligi ham namoyish qiladi.

¹ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Л., 1927. С.10.



Haykaltaroshlikka oid muhim yodgorliklar Varaxsha (shtuk) va Panjikentda (gil va yog'och) olib borilgan qazishmalar paytida topildi. Varaxsha yodgorligida shtukda bajarilgan qush-ayol haykalli figurasi qiziqarlidir. Bunday qush-ayol o'rta asrlar rus san'atida sirena yoki sirina deb ataladi va parilar yoki huriliqolarning bir turi hisoblanadi. Varaxsha yodgorligiga V.A.Shishkin maxsus ishini bag'ishlagan². Butun o'ymakor shtuk kabi, sirena figurasining qoldiqlari in situ topilgan emas, balki uyumdan fragmentlar ko'rinishida topildi. Uyumda siniq parchalar, fragmentlar shu qadar ko'p ediki, dastlab bunday figura bitta bo'lganmi, yoki ikkita bo'lganmi aniqlanmay qoldi. Bu holat muhim ahamiyatga ega, chunki bunga obrazni talqin qilish va prototipini aniqlash bog'liq. Shunga o'xshash gilda bajarilgan ikkita g'aroyib figuralarni Panjikentdan (9ta rasm) topilishi bir qator savollarga javob berishga imkon berdi. Panjikentdagi sirenalar figuralari ham in situ emas, balki ularning dastlabki joylashgan joyini tiklashga imkon beradigan vaziyatda topilgan edi. Ular kichkina uy ibodatxonasiga o'xshagan katta bo'lmagan xonada topildi. Bu xona ham yong'indan katta zarar ko'rgan edi. Bunday xonalarda intererning asosiy elementi bo'lib devorlarning biri yonidagi o'choq maydonchasi xizmat qiladi. O'choq maydonchasi devorga yopishtirilgan gil taxmon bilan o'ralgan bo'lib, bu taxmon yoki tokcha ikkida ustuncha va arkadan tashkil topgan. Xonadagi taxmon arkasi naqshli ganchkorlik bilan bezatilgan edi. Sirenalar figuralari arkani bezatib, yo timpanlarda, yoki arka tagida joylashgan. Sirenalarning arka tagida aynan juft holda tasvirlanishi Hindiston va Afg'oniston san'ati uchun xos hamda Sancha va Bxarxatadagi mashhur stupalardan (er.av.1 asr)³ boshlab to Bamian grotlarigacha⁴ juda ko'plab uchraydi.

² В. А. Шишкин. К вопросу о древних традициях в народном искусстве Узбекистана. Ученые записки Ташкентского Гос. пед. института, вып. I. Ташкент, 1947. стр. 33 и сл.

³ (А.) Grunwedel-Waldschmidt. Buddhistische Kunst in Indien. I Teil. Berlin, 1952, Abb. 55 u. 57.

⁴ A. Godard, Y. Godard, J. Hackin. Les antiquites Bouddhiques de Bamiyan. MDAFA, t. II. Paris, 1928, p. 21, fig. 6, pi. XXII.



Bunday sirenalar⁵ juftligining tasviri Begramdagi o'ymakor suyakda ham bor⁶. Mazkur afsonaviy mavjudotlar buddaviy yozma yodgorliklarda ham Kinara va Kinari nomlari ostidagi erkak va ayol juftligi sifatida tilga olinadi⁷. Shuning uchun V.A.Shishkinning bu mavjudotlarni fors eposidagi Xumo qushiga⁸ o'xshatishi asossizdir hamda na yozma yodgorliklarda, na tasviriy san'at yodgorliklarida buning uchun ma'lumotlar keltirilmagan.

1953 yilda Panjikentdagi ikkinchi ibodatxonaning ayvonidan haykalli panel topilgan bo'lib, unda ham hind san'ati bilan aloqadorlik kuzatiladi. Paneldagi eng xarakterli figuralar – makaka va triton – Hindiston san'atida keng tarqalgan va mashhurdir⁹. Keltirilgan figuralarning ayniqsa yaqin o'xshatishlari Begram yodgorliklarida, jumladan, Begram o'yma naqshinkor suyagida uchraydi.

Hind badiiy madaniyati bilan aloqalar Panjikent tasviriy san'atining yog'och haykaltaroshligi kabi ajoyib tarmog'ida aks ettirilgan. Panjikentdagi kashfiyotlar san'atning ushbu sohasi keng rivojlangan va ommabop bo'lganligiga shubha qoldirmaydi. Hindistonga nisbatan ham tadqiqotchilar shuni tan oladilar¹⁰. Hindiston uchun ham, O'rta Osiyodagi kabi, yozma manbalarning tasdiqlari bor¹¹. Ammo Hindistonda ilk o'rta asrlarga oid yog'och haykaltaroshligi yodgorliklari bizgacha etib kelmagan, chunki Hindiston iqlimi yog'ochga emiruvchi ta'sir o'tkazadi. O'rta Osiyoda ham bunday yodgorliklar deyarli saqlanmagan. Panjikentdagi o'yma naqshinkor yog'och yong'indan xaloq bo'lgan binolarda kuygan holatda saqlangan. Shuning uchun ular ko'pincha defektlil va fragmentar,

⁵ Сирена - юнон афсоналарида боши аёл, танаси куш қиёфасидаги пари

⁶ J. Hackin. Op. cit., Fig. 100.

⁷ Ольденбург С. Ф. Гандхарские скульптурные памятники. Записки Коллегии востоковедов, V. Л., 1925, стр. 175 и далее.

⁸ В. А. Шишкин. Варахша. Автореферат..., стр. 23.

⁹ «Скульптура и живопись Древнего Пянджикента», стр. 73 и далее.

¹⁰ V. A. Smith. A. History of fine Art in India and Ceylon. Oxford, 1911, p. 364.

¹¹ S. Beal Si-yu-ki. Buddhist reports of the Western World. London, 1884, p. XXIX. Он же. The life of Hiuen-Tsiang. London, (1914), p. 47.



ya'ni qisman saqlangan. Shunga qaramay, ko'p hollarda ajoyib asarlar saqlangan bo'lib, ularning badiiy qimmatligi shubhasizdir¹².

A.M.Belenitskiy 1960 yilda kashf etilgan o'ymakor yog'och yodgorligi – uzunligi 2 m, eni 0,6 m bo'lgan g'o'la fragmenti (10-rasm) haqida ma'lumot beradi. Uning rasmi yuzasi eni bo'yicha bir xil bo'lmagan yaruslar ko'rinishida bo'lib, relefli o'yma naqsh bilan ishlangan. Pastki, torroq yarusida (eni 0,2 m) qanotli sherlar yurishi tasvirlangan, tepadagi yarusda (eni 0,4 m) 3ta kompozitsiya joylashtirgan bo'lib, har biri yarimdumaloq arka ichida tasvirlangan. Kompozitsiyalardan chap chekkasida joylashgan rasm qattiq kuyganligi sababli deshifrovka qilinmadi. Qolgan ikkitasi zarar ko'rgan bo'lsa ham, mazmunini aniqlash mumkin edi. Bitta kompozitsiyaning syujeti sifatida orqalari qo'shilib ketgan ikkita hayvon ko'rinishidagi taxtda o'tirgan ayol figurasining tasviri xizmat qiladi¹³. Ikkinchi arkadagi kompozitsiyada orqa oyoqlariga turib tik ko'tarilgan va boshlari har xil tomonga burilgan ikkita ot qo'shilgan jang aravasida o'tirgan odam tasvirlangan. Kompozitsiyaning talqini shuni tasdiqlashga imkon beradiki, bu odam osmondagi yoritgich – Quyoshning tasviridir. Bu syujet ko'plab mamlakatlarning – antik Yunoniston, Vizantiya, Eron – san'atida keng tarqalgan. Biroq, Panjikentdagi yodgorlik ko'pincha Hindiston rangtasviri va haykaltaroshligiga o'xshatiladi. Masalan, quyoshli jang aravasining tasvirini Bod-Gayyadagi (er.av. I asr)¹⁴ va Xayr-Xonadagi haykallarda (eramizning V asri)¹⁵ va Bamian rangtasvirida (er.V asri)¹⁶ uchratish mumkin.

¹² «Скульптура и живопись Древнего Пянджикента», стр. 85.

¹³ Эта композиция послужила предметом специальной работы, в которой указываются и параллели в индийском изобразительном искусстве. См. А. М. Беленицкий. Об изображении зооморфных тронов в среднеазиатском изобразительном искусстве. Изв. АН Таджикской ССР. Душанбе, 1962, стр. 17, рис. 3.

¹⁴ Griinwedel-Waldschmidt. Op. cit., (Abb.) 27.

¹⁵ I. Hackinet J. Carl. Recherches archeologiques an Col de Khair-Khaneh pres de Kaboul. MDAFA, VII. Paris, 1928, pi. XIV.

¹⁶ A. Godard, J. Godard, J. Hackin. Op. cit.



Ta'kidlash kerakki, Panjikentdagi g'o'laning quyi yarusidagi qanotli sherlar yurishi tasviriga hind san'atida o'xshatishlar topiladi. Bxarxutdagi haykalli disk bu yodgorlikka yaqindir¹⁷.

Albatta, O'rta Osiyo va Hindiston tasviriy san'atining VI-VIII asrlardagi yaqin aloqalari haqida dalolat beradigan faktlar yuqorida keltirilgan misollar bilan cheklanmaydi. Mazkur misollar faqat bu mintaqalarning san'atidagi umumiy an'ana qadimdan mavjud bo'lganligidan darak beradi, xolos. Biroq, bunday aloqalar faqat badiiy an'ana bilan belgilangan emas. 1957 yilda Qadimgi Panjikent shahristonida katta sopol idish fragmenti topilgan bo'lib, unda hindcha nagari shrifti bilan yozilgan yozuv bor. Bu yozuv idishni pishirishdan oldin xom gil ustidan chizilgan, ya'ni yasalgan joyida qilingan. Yozuv ham, idish ham VIII asr boshlariga oid deb belgilandi. Taxminlarcha, uni Panjikentda yashab, ishlayotgan hindu yasagan. O'sha davrda sug'diylar ham Hindistonga borganlari shubha tug'dirmaydi. Hindularning sug'dliklar bilan jonli muloqotlari natijasida har bir mamlakatning badiiy yutuqlari bilan o'zaro tanishish sodir bo'lgan.

Xullasa qilib olganda, A. M. Mandelshtam, N. V. Dyakonova, B. I. Marshak, T. V. Grek, B. Ya. Staviskiy kabi bir qator olimlar san'at yodgorliklarini (Begram o'yama naqshinkor suyaklari, Surx-Kutal haykallari) analogiyalar sifatida jalb qilgan holda, aniqlashtirilgan sanalarni taklif qilishdi.¹⁸ Alohida holatlarda O'rta Osiyo yodgorliklari Hindiston yodgorliklarining ta'sirida bo'lganligi yoki aksincha bo'lganligi haqida gapirmasdan, balki ularni vujudga keltirgan diniy tasavvurlarning genezisi haqida gapirish lozimligi qayd qilindi. Shuningdek, ko'rib chiqilgan Panjikentdagi devoriy rangtasvir suratlaridagi ayrim figuralarni O'rta Osiyodagi turli xalqlarning vakillari bo'lishgan deb interpretatsiya qilish

¹⁷ M. Benisti. A propos de «La Sculpture de Bharhut». Arts Asiatiques. Paris, 1958, -T. V/2, p. 135, fig. 9.

¹⁸ [Беленицкий А.М. Из истории культурных связей Средней Азии и Индии в раннем средневековье](https://arheologija.ru/belenitskiy-iz-istorii-kulturnyih-svyazey-sredney-azii-i-indii-v-rannem-srednevekovye/). Доклад на Группе иностранной археологии ЛОИА АН СССР 13 февраля 1963 г. // КСИА Вып 98 1964 С.33-43/
<https://arheologija.ru/belenitskiy-iz-istorii-kulturnyih-svyazey-sredney-azii-i-indii-v-rannem-srednevekovye/>



imkoniyati borligi va monumental san'at yodgorliklarini tahlil qilganda terrakotalarni jalb qilish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Faydalangan adabiyotlar

1. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Л., 1927. С.10.
2. В. А. Шишкин. К вопросу о древних традициях в народном искусстве Узбекистана. Ученые записки Ташкентского Гос. пед. института, вып. I. Ташкент, 1947. стр. 33 и сл.
3. (A.)Grunwedel-Waldschmidt. Buddhistische Kunst in Indien. I Teil. Berlin, 1952, Abb. 55 u. 57.
4. A. Godard, Y. Godard, J. Hackin. Les antiquites Bouddhiques de Bamiyan. MDAFA, t. II. Paris, 1928, p. 21, fig. 6, pi. XXII.
5. Сирена - юнон афсоналарида боши аёл, танаси куш қиёфасидаги пари
6. J. Hackin. Op. cit., Fig. 100.
7. Ольденбург С. Ф. Гандхарские скульптурные памятники. Записки Коллегии востоковедов, V. Л., 1925, стр. 175 и далее.
8. В. А. Шишкин. Варахша. Автореферат..., стр. 23.
9. «Скульптура и живопись Древнего Пянджикента», стр. 73 и далее.
10. V. A.Smith. A. History of fine Art in India and Ceylon.Oxford,1911,p. 364.
11. S. Beal Si-yu-ki. Buddhist reports of the Western World. London, 1884, p. XXIX. Он же. The life of Hiuen-Tsiang. London, (1914), p. 47.
12. «Скульптура и живопись Древнего Пянджикента», стр. 85.
13. Эта композиция послужила предметом специальной работы, в которой указываются и параллели в индийском изобразительном искусстве. См. А. М. Беленицкий. Об изображении зооморфных тронов в среднеазиатском изобразительном искусстве. Изв. АН Таджикской ССР. Душанбе, 1962, стр. 17, рис. 3.
14. Griinwedel-Waldschmidt. Op. cit., (Abb.) 27.
15. I. Hackinet J. Carl. Recherches archeologiques an Col de Khair-Khaneh pres de Kaboul. MDAFA, VII. Paris, 1928, pi. XIV.
16. A. Godard, J. Godar, J. Hackin. Op. cit.
17. M. Benisti. A propos de «La Sculpture de Bharhut». Arts Asiatiques. Paris, 1958, -Т. V/2, p. 135, fig. 9.